

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINING SHEVALARGA
MUNOSABATI VA ULARNING XALQ ORASIDA ISHLATILISHI**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

23/4-guruh 2-bosqich talabasi

Rahmonaliyeva Dilshunos Elyorbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalq orasida uchraydigan turli xil dialektizmlar, ularning o'ziga xosligi, o'zbek tilidagi o'rni va ahamiyati. O'zbek adabiy tiling shevalarga bo'lgan munosabati, ularning til tizimidagi o'rni hamda xalq orasida ishlatilish holati tahlil qilinadi. Va lahjalar haqida bir nechta ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Dialektlar, o'zbek adabiy tili, xalq, lahja, hududiy shevalar, shevalarning saqlanishi, adabiy tilning rivoji, mahalliy nutqiy variantlar, shevalarning adabiy tilga ta'siri.

Аннотация: В статье рассматриваются различные диалектизмы, встречающиеся в народе, их своеобразие, место и значение в узбекском языке. Анализируется связь узбекского литературного языка с диалектами, их место в языковой системе и состояние использования в народе. А также приводятся некоторые сведения о диалектах.

Ключевые слова: Дialeкты, узбекский литературный язык, народ, диалект, региональные диалекты, сохранение диалектов, развитие литературного языка, местные варианты речи, влияние диалектов на литературный язык.

Abstract: This article discusses various dialectisms found among the people, their uniqueness, place and significance in the Uzbek language. The relationship of the Uzbek literary language to dialects, their place in the language system and the state of use among the people are analyzed. And some information about dialects is provided.

Keywords: *Dialects, Uzbek literary language, people, dialect, regional dialects, preservation of dialects, development of the literary language, local speech variants, influence of dialects on the literary language.*

O'zbek tili – ko'p dialektli til. Sababi, o'zbek tili murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, bugungi o'zbek tili o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lgan. O'zbek leksikasi shu qadar boyki, xuddi oxiri yo'qdek. Birgina so'zning turli xil sinonimlarini va bir so'zning ikkidandan ortiq omonimlarini uchratish mumkin. O'zbekistondagi har bitta viloyatning o'ziga xos dialekti mavjud. Bu esa tilimizning boyligi va betakrorligidan dalolat beradi.

Adabiy til – umumxalq tilining eng taraqqiy etgan, me'yorlashtirilgan shakli bo'lib, u rasmiy yozishmalarda, ommaviy axborot vositalarida, ta'limda va badiiy adabiyotda qo'llaniladi.

Sheva (harakat tarzi, tarz, usul) – tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi – sezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq) da yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi. Sheva – bu boshqa sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so'z yasalishi va lug'aviy belgilariga ko'ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang'it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg'ilon shevasi va boshqalar o'zbek tilining eng kichik hududiy ko'rinishlari hisoblanadi. Alohida shevalar birikib, lahjani tashkil etadi. Shevalar – tilning hududiy variantlari bo'lib, ular adabiy tilga qaraganda ko'proq og'zaki nutqda, kundalik hayotda qo'llaniladi. O'zbek tilida Navoiy, Qashqadaryo, Farg'ona, Toshkent, Namangan, Andijon, Xorazm, Buxoro kabi hududiy shevalar mavjud.

Shuningdek, mutaxassislar (E.Palivanov) o'zbek tilining rang-barang shevalarini uch lahjaga birlashtirganlar. Bular:

1) Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi;

2) Qipchoq lahjasi;

3) O'g'uz lahjasi.

Lahjalar o'zaro farqli xususiyatga ega.

O'zbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi o'zbek milliy adabiy tilining me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu, odatda, o'zbek xalqining shakllanishida qarluq etnik tarkibi qoraxoniylar davridan boshlab alohida mavqega ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi tarkibidagi *uyg'ur* qadimgi uyg'urlarga hech qanday aloqasi yo'q. Bu atama o'zbek tili bilan birgalikda turkiy tillar g'arbiy xun tarmog'ining qarluq guruhiga mansub bo'lgan hozirgi uyg'ur tiliga ishora qiladi, xolos. Shuning uchun hozirgi o'zbek milliy adabiy tili me'yorlarining bu lahja xususiyatlari bilan yaqinligi bejiz emas.

Turkiyshunos A.K.Borovkov e'tiroficha, o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tiliga har jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Sababi:

1)Hozirgi o'zbek milliy adabiy tili uzoq adabiy ishlov an'anasi (jumladan, eski turkiy, eski o'zbek, yangi o'zbek adabiy tillari)ning bevosita davomi; milliy adabiy til kamida ming yillik adabiy ishlov mahsuli;

2)O'zbek tilining barcha lahjalari o'zbek tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchliroq bo'lsa, boshqa sohada o'zga bir shevalar guruhining ta'siri ko'proq seziladi.

Masalan, *qirqim, o'tov, to'l, sarimoy, chakki, chalop, uloq, sovliq* kabi umumiy va chorvachilik atamaları, *quyruq, bovrur, patir, tovoq, kulchatoy, lochira* singari pazandachilik atamaları adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan.

Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi *yoshulli, o'g'lon, buyon, qaydin, qorago'z* kabi qator so'zlarni misol sifatida keltirish o'rinli.

Demak, o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida tayanch manba bo'lgan tarixiy an'ana bilan bir qatorda barcha lahja hamda shevalarning o'ziga xos o'rni bor.

“O'zbek xalq shevalari lug'ati” – 1971-yilda chop etilgan kitob,

O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Qirg'izistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpog'istonda yashovchi o'zbeklarning Qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga oid shevalar bo'yicha to'plangan ma'lumotlar orqali tayyorlangan maxsus lug'atdir. O'zbek shevalarini o'rganishga G'ozim Olim Yunosov, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, F.Abdullayev, S.Otamirzayeva, O.Madrahimov va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Shevalar kundalik muloqot, og'zaki xalq ijodi (ertaklar, dostonlar) va mahalliy madaniyatda faol ishlatiladi. Ayniqsa, katta yoshdagi insonlar, qishloq joylarda yashovchilar ko'proq shevalarda so'zlashadi. Mahalliy radio va telekanallarda, ijtimoiy tarmoqlarda ham shevaga asoslangan nutqlar tez-tez uchraydi. Shevalar yordamida mahalliy kalorit (o'ziga xoslik) yaratiladi va xalqning tili saqlanib qolinishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda har bir viloyatning, viloyatlar ichidagi tuman, qishloq va ovullarning o'ziga xos shevalari mavjud.

Tilshunoslarning fikriga ko'ra, shevalar til taraqqiyotining tabiiy ko'rinishi, ularni o'rganish – o'zbek tilining tarixiy rivojini anglash muhim. Masalan, adabiy tildagi *kelyapman*, *kelyapti* o'rniga *kevomman*, *ketvotti* deyiladi – bu nafaqat fonetik, balki morfologik farq hamdir. Viloyatlar aro shevaga oid so'zlar:

- 1)Shoti (Farg'ona) – **narvon**.
- 2)Kaltak (Farg'ona va Andijon) – **qalamcha**.
- 3)Tancha (Toshkent), Sandal (Farg'ona va Andijon) – qishda isinib o'tiradigan joy.
- 4)Shappat (Xorazm) – **shapaloq**.
- 5)Buvak (Farg'ona va Andijon) – **chaqaloq**.
- 6)Pishak (Samarqand, Navoiy va Qashqadaryo) – **mushuk**.
- 7)Bibi (Buxoro), Momo (Qashqadaryo va Surxondaryo) – **ona**.

Xullosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalar bir-birini boyituvchi tizimlardir. Sheva va lahjalar adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiy etishida salmoqli o'ringa ega. Shevalarni asrash, ularni ilmiy jihatdan o'rganish va adabiy til bilan uyg'unlashtirish – til siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Har bir sheva – xalqning madaniy xotirasi va boyligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamalxonov. H, Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent.
2. Bozzorov. Y, Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent, 2013.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent, 2020.
4. O'zbek xalq shevalari lug'ati, Toshkent.